



## “AL-AJURUMIYYA” ASARINI ZAMONAVIY LINGVISTIK NAZARIYALAR BILAN QIYOSIY TAHLILI

Maxkamov Rohmonjon To‘lqinovich

Oriental universiteti magistranti

Begmatova Buzahro Ma‘rufjanovna

Ilmiy rahbar: y.f.n. dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19439423>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-aprel 2026 yil

Ma‘qullandi: 04-aprel 2026 yil

Nashr qilindi: 06-aprel 2026 yil

### KEYWORDS

Ajrumiya, arab nahvi,  
zamonaviy lingvistika, i‘rob,  
omil, grammatik model,  
strukturaviy tahlil, generativ  
grammatika, sintaktik funktsiya,  
qiyosiy lingvistika.

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada “Ajrumiya” asarida bayon qilingan arab tili nazariyasi zamonaviy lingvistika yondashuvlari bilan qiyosiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi klassik nahv tizimidagi grammatik kategoriyalarning strukturaviy tashkil topishi hamda ularning zamonaviy lingvistik nazariyalardagi ekvivalentlari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlashdan iborat.*

*Tadqiqot jarayonida tavsifiy, qiyosiy va strukturaviy metodlardan foydalanildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, klassik nahv tizimida so‘z turkumlari ontologik asosni tashkil etsa, zamonaviy lingvistikada bu tushuncha kategoriyalash va sintaktik rollar orqali izohlanadi. I‘rob tizimi zamonaviy lingvistika nuqtai nazaridan formal marker sifatida talqin qilinadi, omil tushunchasi esa boshqaruv va bog‘lanish mexanizmlariga yaqin keladi. Natijada “Ajrumiya”da ifodalangan grammatik model zamonaviy strukturaviy va qisman generativ yondashuvlarga muayyan darajada mos keladi. Bu esa klassik arab nahvining nazariy salohiyati yuqori darajada shakllanganini ko‘rsatadi.*

Arab nahv ilmi asrlar davomida shakllangan va mukammallashgan grammatik tizim sifatida nafaqat amaliy til o‘rgatish vositasi, balki nazariy tafakkur mahsuli sifatida ham alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Klassik nahv manbalari orasida “Al-Ajrumiyya” asari ixchamligi, tizimlilik va terminologik aniqligi bilan ajralib turadi. Ushbu matn ko‘pincha boshlang‘ich darajadagi darslik sifatida baholanadi. Biroq uning ichki tuzilishi va kategoriyalarni joylashtirish tamoyili mazkur asarni faqat pedagogik qo‘llanma sifatida emas, balki nazariy model sifatida ham ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Maqolada ko‘tarilgan muammo shundan iboratki, “Ajrumiya” asari asosan an‘anaviy grammatik tizim doirasida talqin qilinib kelinmoqda, uning zamonaviy lingvistik nazariyalar bilan qiyosiy tahlili esa yetarli darajada amalga oshirilmagan. Holbuki, asarda ifodalangan grammatik kategoriyalar tizimi strukturaviy va funksional jihatdan zamonaviy lingvistika yondashuvlari bilan muayyan darajada mos kelishi mumkin.

Mazkur mavzuning tanlanish sababi klassik arab nahv merosini zamonaviy lingvistik paradigmalarga nisbatan qayta talqin qilish zarurati bilan bog'liq. Hozirgi lingvistika tilni o'zaro bog'langan elementlar tizimi sifatida ko'radi va grammatik hodisalarni abstrakt kategoriyalar orqali izohlaydi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, klassik nahv tizimining ichki mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy lingvistika nazariyalari asosan Yevropa tillari materiallari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, boshqa til tizimlari bilan qiyosiy tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan. "Ajrumiya" kabi ixcham, ammo tizimli matnni zamonaviy lingvistik nazariyalar bilan solishtirish grammatik tafakkurning universallik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda "Ajrumiya" asari zamonaviy lingvistika bilan qiyosiy asosda tahlil qilinadi. Klassik nahvdagi so'z turkumlari, i'rob va omil tushunchalari strukturaviy va funksional nuqtai nazardan qayta talqin qilinadi hamda ular zamonaviy lingvistik kategoriyalar bilan bog'lanadi. Shu orqali mazkur asarning nazariy salohiyati yangi ilmiy kontekstda ochib beriladi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Arab nahv ilmi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosan tarixiy, sharhiy va maktablararo qiyosiy yo'nalishda rivojlangan. Klassik manbalar orasida Sibavayhning "Al-Kitob" asari arab grammatik tafakkurining nazariy asoslarini shakllantirgan eng muhim manba sifatida e'tirof etiladi. Ushbu asarda grammatik hodisalar chuqur mantiqiy va analitik yondashuv asosida bayon qilingan. Keyingi davrlarda Ibn al-Hojibning "Al-Kofiya"si hamda Ibn Hishomning "Mug'ni al-labib" asarlari nahv nazariyasini yanada murakkab va tizimli shaklda rivojlantirgan.

Mazkur manbalarda grammatik kategoriyalar keng qamrovli va tafsilotli tarzda yoritilgan bo'lsa-da, ular asosan murakkab nazariy tizim sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli keyingi davrlarda ixcham va tizimli bayon etilgan asarlarga ehtiyoj yuzaga kelgan. "Ajrumiya" ana shunday ehtiyoj natijasida yaratilgan matn bo'lib, u nahv ilmining asosiy tushunchalarini qisqa va izchil shaklda jamlagan.

Shu bilan birga, "Ajrumiya"ga oid tadqiqotlar asosan sharhchilik an'anasi doirasida olib borilgan. Asarga yozilgan ko'plab sharhlar uning iboralarini izohlash, grammatik masalalarni kengaytirish va klassik nahv manbalari bilan bog'lashga qaratilgan. Biroq ushbu tadqiqotlarda asarning ichki nazariy tuzilishini mustaqil lingvistik model sifatida tahlil qilishga yetarli darajada e'tibor berilmagan.

Zamonaviy lingvistika doirasida esa til tizimini strukturaviy va funksional jihatdan o'rganishga katta e'tibor qaratilgan. Ferdinand de Sossyur asos solgan strukturaviy lingvistika tilni o'zaro bog'langan belgilar tizimi sifatida talqin qiladi. Keyinchalik bu yondashuv turli yo'nalishlarda rivojlanib, grammatik kategoriyalarni formal va funksional jihatdan tahlil qilish imkonini berdi.

Generativ grammatika doirasida Noam Xomskiy tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar tilning chuqur strukturasi va sintaktik qoidalar tizimini tushuntirishga qaratilgan. Bu yondashuvda til faqat tashqi shakl sifatida emas, balki ichki mexanizmlarga ega tizim sifatida qaraladi. Shuningdek, funksional lingvistika til birliklarining kommunikativ vazifalarini asosiy mezon sifatida ko'rib chiqadi.

Biroq zamonaviy lingvistika tadqiqotlarida klassik arab nahv merosini aynan qiyosiy asosda o'rganish yetarli darajada rivojlanmagan. Ayrim tadqiqotlarda i'rob kategoriyasi

morfoloqik yoki sintaktik marker sifatida talqin qilingan bo'lsa-da, ularning klassik nazariy model bilan bog'liqligi chuqur tahlil qilinmagan. Xuddi shuningdek, omil tushunchasini zamonaviy sintaktik boshqaruv nazariyalari bilan solishtirish masalasi ham yetarli darajada yoritilmagan.

Shu bois mazkur maqolada "Ajrumiya" asari mavjud adabiyotlardan farqli ravishda zamonaviy lingvistik yondashuvlar bilan qiyosiy asosda tahlil qilinadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, klassik va zamonaviy lingvistika o'rtasida muayyan konseptual yaqinlik mavjud bo'lsa-da, bu bog'lanish tizimli tarzda ochib berilmagan. Mazkur tadqiqot ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

### **Metodologiya**

Mazkur maqolada tadqiqot klassik arab nahv manbalarini zamonaviy lingvistik yondashuvlar bilan qiyosiy tahlil qilish metodologiyasiga tayandi. Tadqiqot obyekti sifatida "Al-Ajrumiyya" matni tanlandi. Tadqiqot predmeti esa asarda ifodalangan grammatik kategoriyalar tizimi hamda ularning zamonaviy lingvistika doirasidagi nazariy ekvivalentlari hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi.

Birinchidan, tavsifiy metod qo'llanildi. Ushbu metod yordamida asarda bayon qilingan grammatik tushunchalar — so'z turkumlari, i'rob shakllari va omil kategoriyasi izchil ravishda tavsiflandi. Har bir tushuncha o'zining ichki mazmuni va tizimdagi o'rni nuqtai nazaridan aniqlashtirildi.

Ikkinchidan, qiyosiy-tahliliy metod asosiy metodlardan biri sifatida qo'llanildi. Bu metod orqali klassik nahv kategoriyalari zamonaviy lingvistika nazariyalari bilan solishtirildi. Xususan, so'z turkumlari kategoriyasi zamonaviy kategoriyalash nazariyasi bilan, i'rob tizimi formal markerlar bilan, omil tushunchasi esa sintaktik boshqaruv va dependency nazariyalari bilan qiyoslandi.

Uchinchidan, strukturaviy tahlil metodi qo'llanildi. Ushbu metod orqali grammatik birliklarning o'zaro bog'liqligi, ularning ierarxik joylashuvi va sabab-natija munosabatlari aniqlashtirildi. Klassik modeldagi "so'z turi — sintaktik vazifa — i'rob — omil" zanjiri zamonaviy lingvistik tizimlar bilan bog'liq holda tahlil qilindi.

To'rtinchidan, terminologik analiz amalga oshirildi. "Kalima", "i'rob", "raf", "nasb", "jarr", "jazm", "omil" kabi tayanch tushunchalarning semantik doirasi va funksional yuklamasi aniqlashtirildi hamda ular zamonaviy lingvistik terminlar bilan qiyoslandi.

Bundan tashqari, mantiqiy-model tahlili qo'llanildi. Ushbu metod yordamida grammatik hodisalarning bayon etilish ketma-ketligi va ularning nazariy konstruksiyadagi o'rni aniqlashtirildi. Klassik modeldagi umumiy qoida, uning turlari va istisnolar berilish mexanizmi zamonaviy lingvistik modellardagi strukturalar bilan solishtirildi.

Tadqiqot jarayonida kontekstual tahlil tamoyili ham qo'llanildi. Grammatik kategoriyalar klassik nahv an'analari doirasida o'rganildi va ular zamonaviy lingvistik konsepsiyalar bilan bog'liq holda talqin qilindi.

Mazkur metodologik yondashuv "Ajrumiya" asarini faqat tarixiy yoki ta'limiy matn sifatida emas, balki zamonaviy lingvistika bilan qiyoslanadigan nazariy model sifatida tahlil qilish imkonini berdi. Natijada klassik va zamonaviy grammatik tizimlar o'rtasidagi umumiylik va farqlar aniqlashtirildi.

### **Muhokama va natijalar**

“Al-Ajurumiyya” asarida bayon qilingan grammatik tizim faqat qoidalar majmui emas, balki ichki ierarxik tuzilishga ega nazariy model sifatida shakllangan. Asarda grammatik bayon “kalima” tushunchasidan boshlanadi va soʻz uch turga — ism, feʼl va harfga ajratiladi. Ushbu tasnif klassik nahv tizimining ontologik asosini tashkil etadi. Mazkur tasnif zamonaviy lingvistikada qoʻllaniladigan kategoriyalash jarayoniga muayyan darajada mos keladi. Strukturaviy lingvistika nuqtai nazaridan qaralganda, soʻz turkumlari til tizimidagi asosiy birliklar sifatida talqin qilinadi. Bu holat klassik nahvdagi uchlik tasnifining nazariy jihatdan umumlashtirilgan model ekanini koʻrsatadi.

Tahlil davomida quyidagi strukturaviy bogʻlanish aniqlashtirildi: soʻz turi sintaktik vazifani belgilaydi, sintaktik vazifa grammatik shakl orqali ifodalanadi, ushbu shakl esa muayyan boshqaruvchi element taʼsiri ostida yuzaga keladi. Bu sabab–natija zanjiri klassik modelda iʼrob va omil tushunchalari orqali izohlanadi. Zamonaviy lingvistikada esa ushbu munosabatlar sintaktik bogʻlanish va dependency strukturalari orqali tushuntiriladi.

Iʼrob kategoriyasi klassik nahvda markaziy oʻrin egallaydi. Raʼ, nasb va jarr shakllari sintaktik vazifalarning formal koʻrsatkichlari sifatida xizmat qiladi. Qiyosiy tahlil shuni koʻrsatadiki, bu holat zamonaviy lingvistikadagi kelishik tizimlari yoki grammatik markerlar bilan funksional jihatdan oʻxshashdir. Demak, iʼrobni morfologik hodisa sifatida emas, balki sintaktik funksionaning tashqi indikator sifatida talqin qilish mumkin.

Omil tushunchasi ham qiyosiy tahlilda muhim natijalarni berdi. Klassik nahvda omil grammatik boshqaruvni taʼminlovchi asosiy mexanizm sifatida qaraladi. Feʼl va harflar boshqa birliklarning iʼrobini belgilaydi. Zamonaviy lingvistikada bu hodisa boshqaruv (government) va bogʻlanish (dependency) nazariyalari orqali izohlanadi. Bu esa omil tushunchasining nazariy jihatdan zamonaviy sintaktik modellarga yaqinligini koʻrsatadi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat aniqlandi. Klassik modelda grammatik kategoriyalar qatʼiy ierarxik tartibda joylashtirilgan. Avval umumiy tushunchalar beriladi, keyin ularning turlari va istisnolari keltiriladi. Bu yondashuv zamonaviy lingvistikada qoʻllaniladigan tizimli va darajali model bilan muvofiq keladi.

Klassik nahv tizimida grammatik hodisalar oʻzaro bogʻlangan yagona tizim sifatida talqin qilinadi. Soʻz turkumlari ontologik asosni tashkil etadi, sintaktik vazifalar funksional qatlamni hosil qiladi, grammatik shakllar esa formal ifodani taʼminlaydi. Zamonaviy lingvistika ham tilni aynan shunday koʻp qatlamli tizim sifatida koʻradi. Bu esa ikki yondashuv oʻrtasida metodologik yaqinlik mavjudligini koʻrsatadi.

Olingan natijalar shuni koʻrsatadiki, “Al-Ajurumiyya” asari grammatik bilimni ixchamlashtirilgan, tizimli va nazariy jihatdan izchil model shaklida taqdim etadi. Uning ichki tuzilishi zamonaviy lingvistik nazariyalar bilan qiyoslash imkonini beradi va klassik arab nahvining yuqori darajadagi nazariy rivojlanganligini tasdiqlaydi.

#### **Xulosa va takliflar**

Mazkur tadqiqot natijalari “Al-Ajurumiyya” asari klassik arab nahvining faqat boshlangʻich oʻquv qoʻllanmasi emas, balki ichki ierarxik tuzilishga ega ixchamlashtirilgan nazariy model ekanini koʻrsatadi. Asarda grammatik kategoriyalar qatʼiy mantiqiy ketma-ketlik asosida joylashtirilgan boʻlib, soʻz turkumlari ontologik asosni, sintaktik vazifalar funksional qatlamni, grammatik shakllar esa formal ifodani taʼminlaydi. Ushbu elementlarning oʻzaro bogʻliqligi yagona strukturaviy tizimni yuzaga keltiradi.

Klassik nahvda mavjud bo'lgan i'rob va omil tushunchalari zamonaviy lingvistik nazariyalarda qo'llaniladigan grammatik markerlar hamda sintaktik boshqaruv mexanizmlariga muayyan darajada mos keladi. I'rob sintaktik funksiyaning tashqi ko'rsatkichi sifatida talqin qilinadi, omil esa grammatik bog'lanish va boshqaruvni ta'minlovchi nazariy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa klassik va zamonaviy lingvistik yondashuvlar o'rtasida konseptual yaqinlik mavjudligini ko'rsatadi.

“Al-Ajurumiyya”da ifodalangan grammatik model strukturaviy jihatdan izchil, funksional jihatdan mantiqiy va nazariy jihatdan umumlashtirilgan tizim hisoblanadi. Ushbu model tilni o'zaro bog'langan elementlar majmui sifatida talqin qilish imkonini beradi va zamonaviy lingvistik nazariyalar bilan qiyoslash uchun qulay ilmiy asos yaratadi.

Mazkur natijalardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, klassik arab nahv manbalarini zamonaviy lingvistik nazariyalar bilan qiyosiy asosda o'rganishni kengaytirish zarur. Bu yondashuv grammatik tafakkurning universallik darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, i'rob va omil kategoriyalarini generativ grammatika, dependency nazariyasi va funksional lingvistika doirasida chuqurroq tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Uchinchi, klassik nahv matnlarini faqat ta'limiy emas, balki nazariy model sifatida o'rganish metodologiyasini rivojlantirish zarur.

Mazkur maqola “Al-Ajurumiyya” asarini zamonaviy lingvistika nuqtai nazaridan qayta talqin qilish imkonini ko'rsatdi hamda klassik arab grammatik merosining nazariy salohiyatini yangi ilmiy kontekstda ochib berdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibn Ajrum. Al-Ajurumiyya. – Qohira: Dar al-Kutub al-'Ilmiyya, 2005. – 64 b.
2. Sibawayh. Al-Kitab. – Bayrut: Dar al-Kutub al-'Ilmiyya, 1988. – 2 jild, 540 b.
3. Ibn al-Hajib. Al-Kafiya fi 'Ilm an-Nahw. – Bayrut: Dar al-Fikr, 1999. – 312 b.
4. Ibn Hisham al-Ansari. Mughni al-Labib 'an Kutub al-A'arib. – Bayrut: Dar al-Fikr, 2001. – 2 jild, 680 b.
5. Ferdinand de Saussure. Course in General Linguistics. – London: Duckworth, 1983. – 240 p.
6. Noam Chomsky. Syntactic Structures. – The Hague: Mouton, 1957. – 117 p.
7. Andrew Radford. Syntax: A Minimalist Introduction. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – 456 p.
8. Shawqi Dayf. Al-Madaris an-Nahwiyya. – Qohira: Dar al-Ma'arif, 1968. – 286 b.
9. Muhammad al-Tantawi. Nash'at an-Nahw wa Tarikh Ashhar an-Nuhat. – Qohira: Maktabat al-Khanji, 1995. – 248 b.
10. Begmatova B. Arab nahv nazariyasining metodologik asoslari. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2019. – 214 b.
11. Madumarov M.M. Tadqiqot ishini tashkil etish: IMRAD formati. Qo'qon universiteti ilmiy axborotnomasi, Qo'qon, 2023. – №4. – B. 799–802.